



TOSHKENT SHAHRINING SANOAT ISHLAB CHIQARISHI (2020-YIL YANVAR-APREL)

Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2020-yil yanvar-aprel oylarida Toshkent shahrida faoliyat ko'rsatayotgan sanoat korxonalari tomonidan 17 298,4 mlrd. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan sanoat ishlab chiqarish indeksi 98,9 % ni tashkil etdi.

Jami sanoat ishlab chiqarish hajmi o'sishining asosiy omili bo'lib, ishlab chiqaradigan (qayta ishslash) sanoat hajmi indeksi 97,5 %, tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishslash 106,0 %, elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash 130,0 % hamda suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish 82,7 % ni tashkil qildi.


Sanoat mahsuloti hajmi 17 298,4 mlrd. so'mni, sanoat ishlab chiqarish indeksi 98,9 % ni tashkil etdi.

Iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmi 5 903,2 mlrd. so'mni va o'sish sur'ati 112,6 % tashkil etdi.

Iste'mol tovarlarining jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 34,1% ni tashkil etdi.

Sanoat ishlab chiqarishda kichik biznesning ulushi – 34,4 %

2020-YILNING YANVAR-APREL OYLARIDA ASOSIY IQTISODIY FAOLIYAT TURLARI BO'YICHA SANOAT ISHLAB CHIQARISH TARKIBI



➤ B - Tog'- kon sanoati va ochiq konlarni ishslash

➤ C - Ishlab chiqaradigan sanoat

➤ D - Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash

➤ E - Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish

TOG‘-KON SANOATI VA OCHIQ KONLARNI ISHLASH




Iqtisodiy tarmoqlar kesimida o‘rganilganda, joriy yilning yanvar-aprel oylarida Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalari tomonidan 3926,3 mlrd. so‘mlik mahsulot ishlab chiqarildi va jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotidagi ulushi 22,7 % ni tashkil etgan.



Tog‘-kon sanoatida ishlab chiqarilgan mahsulotlar turi bo‘yicha tabiiy gaz va xom neft qazib olish indeksi 109,6 % va boshqa tog‘-kon sanoati faoliyati esa 112,6 % tashkil etdi.



TOG‘-KON SANOATI VA OCHIQ KONLARNI ISHLASHDA YIRIK SANOAT KORXONALARI TOMONIDAN AYRIM TURDAGI SANOAT MAHSULOTLARINI ISHLAB CHIQARISH



O‘tgan yilning shu davriga nisbatan ko‘mir, lignit neft va tabiiy gaz qazib chiqarish 9,6 foizga oshdi, boshqa turdagи tog‘-kon sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish 12,6 foizga oshdi, tog‘-kon sanoatida texnik xizmatlar 12,9 foizga kamaydi

TOG‘-KON SANOATI VA OCHIQ KONLARNI ISHLASH MAHSULOTLARI

TABIYY GAZ VA XOM NEFT QAZIB OLİSH



2019-yil yanvar-aprel oylarida
3 444,7 mlrd. so'mlik mahsulot
ishlab chiqarilgan

2019-yil yanvar-aprelga
nisbatan 109,6 % da

2020-yil yanvar-aprel oylarida
3 876,7 mlrd. so'mlik mahsulot
ishlab chiqarilgan

BOSHQA TOG‘-KON SANOATI



2019-yil yanvar-aprel oylarida
47,4 mlrd. so'mlik mahsulot
ishlab chiqarilgan


2019-yil yanvar-aprelga
nisbatan 112,6 % da

2020-yil yanvar-aprel oylarida
42,3 mlrd. so'mlik mahsulot
ishlab chiqarilgan

ISHLAB CHIQARISH (QAYTA ISHLASH) SANOATI


2020-yilning yanvar-aprel oylarida ishlab chiqarish sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 11 434,8 mld. so‘mni va o‘tgan yilga nisbatan ishlab chiqarish indeksi 97,5 % ni tashkil qildi. Ishlab chiqarish sanoati tarkibida yuqori texnologiyali ishlab chiqarish ulushi – 9,0 % ni, o‘rta-yuqori texnologiyali ishlab chiqarish – 21,7 %, o‘rta-quyi texnologiyali ishlab chiqarish – 25,9 %, quyi texnologiyali ishlab chiqarish esa – 43,3 % ni tashkil etdi.

2019-yilning yanvar-aprel oylarida ishlab chiqarishning texnologik tarkibi bo'yicha ishlab chiqaradigan sanoat tarkibi



- Yuqori texnologiyali
- O'rta-yuqori texnologiyali
- O'rta-quyi texnologiyali
- Quyi texnologiyali

2020-yilning yanvar-aprel oylarida ishlab chiqarishning texnologik tarkibi bo'yicha ishlab chiqaradigan sanoat tarkibi



- Yuqori texnologiyali
- O'rta-yuqori texnologiyali
- O'rta-quyi texnologiyali
- Quyi texnologiyali

O‘z navbatida ishlab chiqaradigan sanoatda o‘tgan yilning mos davriga nisbatan kiyim ishlab chiqarish sohasi 47,7 % ga, kompyuter, elektron va optik mahsulot ishlab chiqarish 2,1 martaga oshdi.

Shu bilan bir qatorda, rezina va plastmassa mahsulotlari ishlab chiqarish 24,8 % ga, avtotransport vositalari, treylerlar va yarim tirkamalar ishlab chiqarish 5,2 % ga kamaydi.

ISHLAB CHIQARISH (QAYTA ISHLASH) SANOATI

OZIQ-OVQAT MAHSULOTLARI




2019-yil yanvar-aprel oylarida
1 420,9 mlrd. so'mlik mahsulot
ishlab chiqarilgan

2019-yil yanvarg-aprel
oylariga nisbatan 112,9 % da

2020-yil yanvar-aprel oylarida
1 771,9 mlrd. so'mlik mahsulot
ishlab chiqarilgan



ICHIMLIK ISHLAB CHIQARISH



2019-yil yanvar-aprel oylarida
634,5 mlrd. so'mlik mahsulot
ishlab chiqarilgan

2019-yil yanvar-mart oylariga
nisbatan 87,7 % da



2020-yil yanvar-aprel oylarida
839,4 mlrd. so'mlik mahsulot
ishlab chiqarilgan

ISHLAB CHIQARISH (QAYTA ISHLASH) SANOATI

TEKSTIL MAHSULOTLARI



2019-yil yanvar-aprel oylarida
801,9 mlrd. soʻmlik mahsulot
ishlab chiqarilgan



2019-yil yanvar-aprel
oylariga nisbatan 91,4% da

2020-yil yanvar-aprel oylarida
791,7 mlrd. soʻmlik mahsulot
ishlab chiqarilgan

FARMATSEVTIKA MAHSULOTLARI



2019-yil yanvar-aprel oylarida
400,4 mld. soʻmlik mahsulot
ishlab chiqarilgan



2019-yil yanvar-aprel
oylariga nisbatan 111,6 % da

2020-yil yanvar-aprel oylarida
445,1 mld. soʻmlik mahsulot
ishlab chiqarilgan

AVTOTRANSSPORT VOSITALARI, TREYLERLAR VA YARIM TIRKAMALAR



2019-yil yanvar-aprel oylarida
55,5 mlrd. soʻmlik mahsulot
ishlab chiqarilgan




2019-yil yanvar-aprel
oylariga nisbatan 94,8 % da

2020-yil yanvar-aprel oylarida
66,1 mlrd. soʻmlik mahsulot
ishlab chiqarilgan


ELEKTR, GAZ, BUG' BILAN TA'MINLASH VA HAVONI KONDITSIYALASH

2020-yil yanvar-aprel oylarida korxonalar tomonidan elektr energiyasini ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash, bug' uzatish va havoni konditsiyalash tizimlari sohasi bo'yicha 1 692,0 mlrd. so'mlik mahsulotlar ishlab chiqarildi va o'tgan yilning mos davriga nisbatan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish indeksi - 130,0 % ni tashkil etdi.



Elektr energiyasini ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash, bug' uzatish va havoni konditsiyalash tizimlari

Gazsimon yoqilg'ini ishlab chiqarish va taqsimlash



Elektr energiyasini ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash, bug' uzatish va havoni konditsiyalash tizimlari sohasida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish indeksi 9,8 % ga ko'paydi.

Gazsimon yoqilg'ini ishlab chiqarish va taqsimlash sohasida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish indeksi 8,6 % ga o'sdi.


SUV BILAN TA'MINLASH, KANALIZATSIYA TIZIMI, CHIQINDILARNI UTILIZATSIYA QILISH

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar 243,0 mld. so'mni (jami ishlab chiqarilgan mahsulotlari hajmining 1,4 % ni) tashkil etganligi kuzatildi.

Bunda 2020-yil yanvar-aprel oylarida suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar indeksi 82,7 % tashkil etdi.

ISTE'MOL TOVARLARINI ISHLAB CHIQARISH

Bozor iqtisodiyoti sharoitida iste'mol tovarlari va xizmatlar bozorini rivojlantirish hamda takomillashtirish ustuvor vazifalardan biri sanaladi. Tayyor mahsulotlar turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida joriy yilning yanvar-aprel oylarida Toshkent shahridagi sanoat korxonalarini tomonidan 5 903,2 mld. so'mlik iste'mol tovarlari ishlab chiqarildi. 2019-yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 112,6 % ni tashkil etdi. Umumiy sanoat mahsulotlarining ishlab chiqarishda iste'mol tovarlarining ulushi 34,1 %.



2020-yilning yanvar-aprel oylarida iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmi va o'sish sur'ati, % da

ISTE'MOL TOVARLARINI ISHLAB CHIQARISH

Oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish 2 096,2 mlrd. so‘mni tashkil etib, jami iste’mol tovarlaridagi ulushi 35,5 %, nooziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish 3 450,9 mlrd. so‘m, jami iste’mol tovarlaridagi ulushi 58,5 %, alkogol mahsulotlarini ishlab chiqarish 356,1 mlrd. so‘m hisoblanib jami iste’mol tovarlaridagi ulushi 6,0 % tashkil etdi.

Tumanlar bo‘yicha iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o‘sish sur’ati (2020-yil, yanvar-aprel)

	Mlrd. so‘m	Jamiga nisbatan ulushi, % da	2019-yil yanvar-aprel oylariga nisbatan
Toshkent sh	5 903,2	100	112,6
Uchtepa	307,1	5,2	106,9
Bektemir	1 260,9	21,4	126,5
Yunusobod	276,2	4,7	104,1
Mirzo Ulug‘bek	502,6	8,5	104,7
Mirobod	443,0	7,5	113,1
Shayxontohur	443,6	7,5	113,6
Olmazor	525,5	8,9	102,0
Sergeli	455,7	7,7	109,0
Yakkasaroy	271,7	4,6	107,2
Yashnabod	854,7	14,5	118,2
Chilonzor	562,1	9,5	107,6



Tumanlar kesimida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining Toshkent shahrida jami hajmidagi eng yuqori ulushi Bektemir tumaniga to‘g‘ri kelib, 44,2 % ni, shuningdek, Sergeli tumani 10,2 % ni, Yashnobod tumani 8,5 % ni, Olmazor tumani 7,4 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining o‘sish sur’atida eng yuqori ko‘rsatkich Bektemir (124,5 %), Yunusobod (120,6 %), Mirobod (118,8 %), Shayxontohur (115,6 %), Mirzo Ulug‘bek (114,8 %) tumanlarida qayd etildi.

**Tumanlar bo‘yicha oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o‘sish sur’ati
(2020-yil yanvar-aprel)**

	Mlrd. so‘m	Jamiga nisbatan ulushi, % da	2019-yil yanvar -mart oylariga nisbatan
Toshkent sh.	2 096,2	100,0	117,7
Uchtepa	141,7	6,8	112,4
Bektemir	925,6	44,2	124,5
Yunusobod	88,5	4,2	120,6
Mirzo Ulug‘bek	95,3	4,5	114,8
Mirobod	74,8	3,6	118,8
Shayxontohur	67,2	3,2	115,6
Olmazor	155,8	7,4	104,6
Sergeli	214,0	10,2	114,6
Yakkasaroy	43,4	2,1	114,1
Yashnobod	177,2	8,5	111,0
Chilonzor	112,7	5,4	112,0



Tumanlar kesimida nooziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining Toshkent shahrida jami hajmidagi eng yuqori ulushi Chilonzor tumaniga to‘g‘ri kelib, 13,0 % ni, shuningdek, Yashnabod tumani 11,5 % ni, Mirzo Ulug‘bek tumani 11,8 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, nooziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining o‘sish sur’atida eng yuqori ko‘rsatkich Yashnabod (142,7 %), Bektemir (132,2 %), Shayxontohur (115,1 %), Mirobod (111,9 %), Chilonzor (106,5 %) tumanlarida qayd etildi.

**Tumanlar bo‘yicha nooziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o‘sish sur’ati
(2020-yil yanvar-aprel)**

	Mlrd. so‘m	Jamiga nisbatan ulushi, % da	2019-yil yanvar -mart oylariga nisbatan
Toshkent sh.	3 450,9	100,0	111,2
Uchtepa	165,4	4,8	102,6
Bektemir	335,3	9,7	132,2
Yunusobod	169,2	4,9	98,6
Mirzo Ulug‘bek	407,4	11,8	102,6
Mirobod	368,2	10,7	111,9
Shayxontohur	344,2	10,0	115,1
Olmazor	369,7	10,7	101,0
Sergeli	217,2	6,3	103,6
Yakkasaroy	228,3	6,6	106,0
Yashnabod	396,7	11,5	142,7
Chilonzor	449,4	13,0	106,5



**Toshkent shahri bo'yicha sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmi
(2020-yil yanvar-aprel)**

	Mlrd. so'm	Fizik hajm indeksi, % da
Toshkent sh.	17 298,4	98,9
Uchtepa	794,3	90,2
Bektemir	1 447,9	87,6
Yunusobod	1 077,8	108,0
Mirzo Ulug'bek	1 438,6	113,5
Mirobod	1 927,6	80,7
Shayxontohur	1 174,6	105,4
Olmazor	1 353,2	112,5
Sergeli	1 210,7	95,4
Yakkasaroy	839,4	94,8
Yashnabod	5 127,3	110,2
Chilonzor	907,0	97,3




HUDUDLARNING SANOAT ISHLAB CHIQARISHDAGI O'RNI

Toshkent shahrida sanoat korxonalarini modernizatsiya qilish, texnik va texnologik qayta jihozlash borasida amalga oshirilayotgan ishlar hududda ishlab chiqarish hajmi va sifatini yuksaltirishga xizmat qilmoqda. Toshkent shahar sanoat ishlab chiqarish hajmi tarkibida eng ko‘p ulush Yashnobod (Toshkent shahri sanoat ishlab chiqarish hajmining 29,6 % ulushini), Mirobod (11,1 %), Bektemir (8,4 %), Mirzo Ulug’bek (8,3 %) tumanlari hissasiga to‘g‘ri keladi.

Shuning bilan birga eng kam ulush Uchtepa (4,6 %), Yakkasaroy (4,9 %), Chilonzor (5,2 %) tumanlariga to‘g‘ri keldi.

2020-YILNING YANVAR-APREL OYLARIDA HUDUDLARNING JAMI SANOAT ISHLAB CHIQARISH HAJMIDAGI ULUSHI, % da





SANOAT ISHLAB CHIQARISHDA KICHIK BIZNESNING ULUSHI

Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2020-yil yanvar-aprel oylarida Toshkent shahrida sanoat ishlab chiqarishda kichik biznesning ulushi – 34,4 % ni tashkil etgan.

Hududlar kesimida kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi eng yuqori ulush Olmazor (jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi 78,1 %), Chilonzor (69,1 %), Sergeli (69,1%) va Uchtepa (54,2 %) tumanlarida kuzatildi.

Shu bilan birga, eng kichik ulush Yashnobod (13,3 %), Mirobod (17,4 %) va Shayxontohur (27,6 %) tumanlari hissasiga to'g'ri keldi.

HUDUDLAR BO'YICHA KICHIK BIZNESNING SANOAT MAHSULOTLARINI ISHLAB CHIQARISHDAGI ULUSHI, % DA

